

## SHARTNOMA №10/12

Lot No 22110012200512

12«12»2022 yil.

521-14-199-XT/2022-son

### I. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Mirobod tuman Xalq ta'limi bo'limi nomidan Nizom asosida harakat qiluvchi mudir v.v.b. Sh.Bekchanov, bundan keyin "Buyurtmachi" deb ataladi, bir tomondan, "Great progres trade" MCHJ nomidan ustav asosida harakat qiluvchi direktori D.Axmedov bundan keyin "Pudratchi" deb ataladigan ikkinchi tomondan quyidagi ishlarni bajarish uchun ushbu shartnomani tuzishdi:

Toshkent shahar Mirobod tumanidagi 94-sonli maktabi issiqlik tizimini joriy ta'mirlash ishlarini (keyingi o'rinlarda ishlar deb yuritiladi) bajarish.

### II. ISHLARNING NARXI VA TO'LOV TARTIBI

2.1. Shartnomaning umumiy summasi: 600 000 000 (Olti yuz million) so'mni QQS bilan tashkil etadi va ushbu shartnoma uchun loyiha-smeta hujjatlari bilan belgilanadi.

2.2. Mazkur shartnoma Tomonlar tarafidan imzolaniib, Moliya vazirligi G'aznachilik bo'limidan ro'yhatdan o'tgan kundan boshlab 10 (o'n) kun ichida Buyurtmachi Pudratchiga joriy narxlarda ishlash uchun mazkur shartnomaning umumiy summasining 30% miqdorida avans to'laydi va ushbu avans 180 000 000 (Bir yuz sakson million) so'mni tashkil etadi.

2.3. Bajarilgan ishlar uchun qolgan 70% miqdoridagi to'lovlar Pudratchi tomonidan mazkur shartnomaning 1.1. bandiga muvofiq ishlar to'liq tugatilganidan keyin va Tomonlar tarafidan bajarilgan ishlar akti imzolaganidan keyin to'lanadi.

2.4. Oldindan to'lov (avans) Pudratchining hisobvarag'iga o'tkazilganidan so'ng, shartnomaning umumiy summasi va bajarilgan ishlarning qiymati shartnoma to'liq bajarilgunga qadar o'zgarishsiz qoladi.

2.5. Shartnomaning qiymati tasdiqlovchi hujjatlar va hisob-kitoblarni taqdim etgan holda xarajatlar o'zgarishiga qarab o'zgartirilishi mumkin.

2.6. Eng kam oylik ish haqi miqdorini o'zgartirishda, mashina va mexanizmlarni ishlatish narxini o'zgartirishda, transport xarajatlarini o'zgartirishda, elektr va issiqlik energiyasiga tariflarni o'zgartirishda normativhuquqiy hujjatlarga muvofiq shartnoma qiymati mutanosib ravishda o'zgartirilishi kerak.

### III. ISHLARNI TOPSHIRISH VA QABUL QILISH TARTIBI

3.1. Ishlarni bajarish muddati "Pudratchi" hisobvarag'iga oldindan to'lov summasi (avans) kelib tushgan kundan boshlab 50 (oltmish) kuni tashkil etadi.

3.2. Ish tugagandan so'ng "Pudratchi" 5 (besh) kun ichida "Buyurtmachi" ga ishni topshirish va qabul qilish dalolatnomasini taqdim etadi.

3.3. "Buyurtmachi" dalolatnomani olgan kundan boshlab 5 (besh) kun ichida dalolatnomani imzolashi yoki ishni qabul qilishning asoslantirilgan rad etishini yuborishi shart.

3.4. Asosan rad etilgan taqdirda, Tomonlar "Pudratchi" hisobidan amalga oshiriladigan zaruriy takomillashtirishlar ro'yxati bilan ikki tomonlama dalolatnoma tuzadilar.

#### **IV. ISH SIFATI**

4.1. "Pudratchi" tomonidan bajariladigan ishlarning sifati O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq tegishli texnik talablar va standartlarga javob berishi kerak.

4.2. "Pudratchi" tomonidan bajariladigan ishlarning (muhandislik tizimlari, asbob-uskunalar, materiallar) kafolatli muddati ishlar tugallangan obyektни qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnomani imzolagan kundan boshlab 12 (o'n ikki) oy etib belgilanadi.

#### **V. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI**

5.1. Ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmagan taqdirda aybdor taraf O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi va 1998-yil 28-avgustdagi "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi 670-I-sonli qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi.

#### **VI. BOSHQA SHARTLAR**

6.1. "Pudratchi" loyiha-smeta hujjatlari asosida ishlarni amalga oshiradi.

6.2. Buyurtmachi mazkur shartnomaning II-bo'limiga muvofiq to'lovlarni amalga oshiradi.

6.2. Barcha qo'shimchalar, o'zgartirishlar va qo'shimchalar ushbu Shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi va Tomonlar tomonidan imzolangan taqdirda amal qiladi.

6.3. Buyurtmachi Pudratchining faoliyatiga aralashmagan holda istalgan vaqtda ishning borishini va sifatini tekshirishga haqli.

#### **VII. SHARTNOMANI BEKOR QILISH**

7.1. Buyurtmachi:

- shartnoma kuchga kirgandan keyin qurilishning boshlanishi Buyurtmachiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra Pudratchi tomonidan bir oydan ko'p vaqtga kechiktirilganda;

- ishlarni tugallashning mazkur shartnomada belgilangan muddati Pudratchining aybi bilan bir oydan ortiq muddatga kechiktirilgan holda,

- pudratchi tomonidan shartnoma shartlari qurilish meyorlari va qoidalari nazarda tutilgan ishlarning sifati pasayishiga olib keladigan darajada buzilganda;

- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

7.2. Pudratchi:

- ishlarning bajarilishi Pudratchiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra Buyurtmachi tomonidan bir oydan ortiq muddatga to'xtatib qo'yilganda; - buyurtmachi tomonidan moliyalashtirish shartlari bajarilmaganda;

- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

7.3. Shartnoma bekor qilinganda Buyurtmachi va Pudratchining qo'shma qaroriga ko'ra tugallanmagan qurilish obyekti bir oy muddatda Buyurtmachiga topshiriladi, Buyurtmachi bajarilgan ishlar qiymatini Pudratchiga to'laydi.

7.4. Mazkur shartnomani bekor qilishga qaror qilgan Tomon mazkur bo'lim qoidasiga muvofiq ikkinchi Tomonga yozma bildirishnoma yuboradi.

7.5. Shartnoma bekor qilingan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni, shu jumladan boy berilgan foydani to'laydi.

7.6. Shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarida yoki mazkur shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

### **VIII. FAVQULODDA HOLATLAR (FORS MAJOR)**

8.1. Urush, qo'zg'olon, sabotaj, ish tashlashlar, tabiiy ofatlar kabi fors-major holatlari yuzaga kelganda tomonlarning hech biri javobgar bo'lmaydi.

8.2. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liqbajarilmasligi tabiat hodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

8.3. Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek ushbu holatlar yuzaga keltirgan vaqtda mutanosib ravishda uzaytiriladi.

8.4. Agar yengib bo'lmaydigan kuch holatlari yoki ularning oqibatlari bir oyda ko'p vaqtda cho'zilsa, u holda Pudratchi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki ularni konservatsiya qilish uchun qanday choralar ko'rilishini muhokama qiladilar.

8.5. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga haqlidir. vakolatli organlar tomonidan berilgan guvohnomalardir.

### **IX. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI**

9.1. Tomonlar yuzaga kelgan ziddiyatli vaziyatlarni muzokaralar yo'li bilan hal qilish uchun barcha choralarni ko'radilar. Agar kelishuvga erishishning iloji bo'lmasa, kelishmovchiliklar Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudiga ko'rib chiqish uchun kiritiladi.

9.2. Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudining qarori har bir Tomon uchun yakuniy majburiyat hisoblanadi.

### **X. KORRUPSIYAGA KARSHI KURASHISH BO'YICHA ASOSIY SHARTLAR**

10.1. Taraflar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar. Shu jumladan, pora berishni taklif qilmaydi, va'da bermaydi, tovlamachilik qilmaydi, pora sifatida pul to'lamaydi, bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik bermaydi

yoki pora, ya'ni Mirobod tuman Maktabgacha ta'lim bo'limi xodimi o'z xizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergan shaxsning manfaatlarini ko'zlab muayyan harakatlarni sodir etishi yoki sodir etmasligi shartligi yoki mumkinligi uchun moddiy qimmatliklarni yoki mulkiy naf olmaydi. Tomonlar ushbu harakatlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rilishiga kafolat beradi.

## XI. YAKUNIY QOIDALAR

11.1. Mazkur shartnoma tomonlar tarafidan imzolanib, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi tomonidan ro'yxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022-yil 31-dekabrgacha amal qiladi.

11.2. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 (ikki) nusxada tuziladi va Tomonlarga saqlash uchun bir nusxadan beriladi.

11.3. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha hollar uchun amaldagi qonun hujjatlari normalari qo'llaniladi.

## XII. TOMONLARNING MANZILLARI

### "PUDRATCHI"

"Great Progress Trade" MCHJ

Toshkent sh., ko'ch. Maxtimquli-  
136 Tel. +99895-170-40-23 r/s :


2020 8000 6047 6604 2001

Qorasaroy filiali.

MFO № 01147

STIR No 301099864

OKED 41202 ga muvofiq kod

Direktor  D.X.Axmedov Mudir \_\_\_\_\_

### "BUYURTMACHI"

Mirobod tuman Xalq  
ta'limi bo'limi

Tel:71-256-30-47 r/s:

23402000300100001010

"XKKM88 Markaziy bank  
bosh boshqarma

STIR No 201534627 201122919

I/s:

100022860262737092100075025



Hujjat elektron raqamli imzo orqali imzolangan.  
Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tekshirish uchun **QR Code** ni skanerlang.

Imzolovchi F.I.SH.	SHERZOD BEKCHANOV ALIMOVICH
Imzolangan sana	12.12.2022 12:32
Hujjat kodi	<b>EV4785614587</b>
Hulosa kodi	<b>DJ7376525825</b>



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI

TOSHKENT SHAHAR ADLIYA BOSHQARMASI

MIROBOD TUMAN ADLIYA BO'LIMI

YURIDIK XIZMAT KO'RSATISH MARKAZI

100072, Toshkent shahar, Mirobod tumani, A.Fitrat ko'chasi, 40 A-uy

el. pochta: mirobod.t-yurmarkaz@adliya.uz

### YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

DJ7376525825

1. Loyihaning turi : Shartnoma
2. Loyihaning nomi: "Great Progress Trade" MCHJ va Mirobod tumani xalq ta'limi o'rtasida xo'jalik shartnomasi.
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: Mirobod tumani xalq ta'limi tomonidan 09.12.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Mirobod tuman  
yuridik markaz  
bosh yuristkonsulti:



S.I.MUXAMMADIYEV

09.12.2022